

**KORPORATIV RISK BOSHQARUVINING KAPITAL
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI**

Akromjonova Maxliyo Axror qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrası,

Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar bozori guruhi I kurs magistranti.

Annotatsiya: Korporativ moliyaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismi bo'lgan risk menejmenti kompaniyaning kapital samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot risklarni samarali boshqarish orqali korporativ kapital samaradorligini optimallashtirish usullarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida risk turlarining tasnifi, RAROC, VaR, CVaR va

Monte-Karlo simulyatsiyasi kabi zamonaviy moliyaviy baholash modellari tahlil qilindi. Empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, puxta ishlab chiqilgan risk boshqaruvi strategiyalari korporatsiyalarning barqarorligi va bozor qiymatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari moliyaviy institutlar, yirik korporatsiyalar va investitsiya kompaniyalari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularning kapital samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Korporativ risk menejmenti, RAROC, VaR, CVaR, Monte-Karlo simulyatsiyasi, moliyaviy barqarorlik, strategik risklar, operatsion risklar.

Zamonaviy global iqtisodiy sharoitida korxonalarning barqaror rivojlanishi ularning kapital samaradorligi va risklarni boshqarish darajasiga bog'liq. Korporativ risklar kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va rentabelligiga bevosita ta'sir qiladi. Risklarning noto'g'ri boshqarilishi kapitaldan foydalanish samaradorligini pasaytirib, kompaniya rentabelligini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Shu sababli, kapital samaradorligini oshirish uchun korporativ risklarni tizimli boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi- risklarni samarali boshqarish orqali kapitaldan foydalanish darajasini optimallashtirish va korporativ

moliyaviy strategiyalarning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishdir.

Korporativ risklar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Moliyaviy risklar (foiz stavkalari, valyuta kurslarining o'zgarishi, likvidlik muammolari).
- Operatsion risklar (ichki tizim xatoliklari, inson omili, texnologik muammolar).
- Bozor risklari (raqobat muhitining o'zgarishi, global iqtisodiy beqarorlik).
- Strategik risklar (noto'g'ri investitsiya qarorlari, biznes modeldagi o'zgarishlar).

Samarali risk menejmenti kapital samaradorligini oshirishga yordam beradi, chunki u moliyaviy yo'qotishlarni kamaytiradi va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Korporativ moliyaviy boshqaruvda kapital samaradorligini baholash va risklarni boshqarish asosiy tamoyillardan hisoblanadi. Tashkilotlar investitsiya va moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ushbu modellarga tayanadi. Quyida eng muhim baholash modellari va ularning risk menejmentidagi roli ko'rib chiqiladi:

1. RAROC (Risk-Adjusted Return on Capital) - *riskka moslashtirilgan kapital daromadliligi modeli*. Ushbu model kompaniyaning risk va kapital rentabelligini hisoblash uchun qo'llaniladigan asosiy model. U tushum va riskni muvozanatlash orqali kapital samaradorligini baholaydi. RAROC korporatsiyalarga risklarni kamaytirish va kapital taqsimotini optimallashtirish imkonini beradi. Risk darajasi yuqori bo'lgan loyihalarni aniqlash va ularni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Banklar va moliyaviy institutlar ushbu modeldan foydalangan holda kredit siyosatini shakllantiradi.

2. VaR (Value at Risk) - *Xavf ostidagi qiymat modeli*. Ushbu model kompaniyaning maksimal moliyaviy yo'qotish ehtimolini hisoblaydigan model bo'lib, ehtimollik tahliliga asoslangan. Kompaniya yoki bank portfel xavfini baholash uchun qo'llaydi. Investitsiya qarorlarini qabul qilishda ishlatiladi.

(derivativlar, qimmatli qog'ozlar bozori). Kredit riskini tahlil qilish va bank rezervlarini shakllantirishga yordam beradi.

3. CVaR (Conditional Value at Risk) - *shartli xavf ostidagi qiymat modeli*. Ekstremal yo'qotishlar ehtimolini hisoblashga qaratilgan. Ya'ni, eng yomon holatlardagi o'rtacha yo'qotish hisoblanadi. Bu model orqali bozor inqirozlari vaqtida yoqotishlarni minimallashtirish strategiyalari ishlab chiqiladi.

4. Monte- Karlo simulyatsiyasi - tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida kapital samaradorligini baholash uchun qo'llaniladigan model. Bu model minglab yoki millionlab ehtimoliy natijalarni yaratish orqali xavf va rentabellikni aniqlaydi.

O'zbekiston moliya bozori va korporativ boshqaruvi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Banklar, sug'urta kompaniyalari va yirik korporatsiyalar kapital samaradorligini oshirish va risklarni boshqarish bo'yicha zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni boshlagan. O'zbekiston markaziy banki tomonidan 2023-yilda joriy qilingan kapital yetarliligi bo'yicha talablar tijorat banklarining Basel III standartlariga moslashuvini rag'batlantirmoqda. Banklar VaR va RAROC kabi modellarni qo'llashni boshlagan bo'lsa-da, bu jarayon hali to'liq shakllanmagan. Kredit risklarini boshqarish maqsadida kredit reyting tizimlari va skoring modellari rivojlanmoqda. Masalan, Ipoteka bank, Xalq banki, va Asakabank kredit portfelining xavf darajasini tahlil qilishda zamonaviy yondashuvlarni joriy qilmoqda.

O'zbekistondagi yirik korporatsiyalar, masalan, "UzAuto Motors", "Uzbekneftegaz", "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" kapital samaradorligini oshirish uchun investitsiya baholash tizimlarini joriy qilmoqda. Risklarni kamaytirish uchun kompaniyalar portfel diversifikatsiyasi, hedjirlash va kapital xarajatlarni optimallashtirish usullaridan foydalanmoqda. IPO va korporativ obligatsiyalar chiqarish orqali kompaniyalar bozor kapitalini jalb qilishga intilmoqda.

Garchi moliyaviy risk boshqaruvi rivojlanayotgan bo'ls-da, bir qator muammolar ham mavjud:

- RAROC va CVaR modellaridan foydalanish hali keng tarqalmagan.

Xatarlarni prognoz qilish uchun yetarli statistik ma'lumotlar va ehtimollik tahlillari km;

- Moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun risk modellashtirish dasturlari ko'proq joriy qilish zarur.

- Korporativ moliyada raqamli texnologiyalarni yetarli darajada joriy qilinmaganligi. Big Data, sun'iy intellekt asosida risk tahlili va Monte-Karlo simulyatsiyasi amaliyotga hali to'liq joriy etilmagan;

- O'zbekistonda fond bozori va kapital bozorining rivojlanishi hali nisbatan sust. Qimmatli qog'ozlar bozori institutsional investorlar uchun to'liq shakllanmagan, bu esa kapital samaradorligini oshirishda cheklov bo'lib qolmoqda.

Xulosa va tavsiyalar:

Korporativ risk boshqaruvi kompaniyaning kapital samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy risk baholash modellaridan, jumladan, RAROC, VaR, CVaR va Monte-Karlo simulyatsiyadidan samarali foydalanish moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirib, barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. O'zbekistonda moliya bozori va korporativ boshqaruv sohasida sezilarli rivojlanish kuzatilayotgan bo'lsa-da, risk menejmenti tizimi hali to'liq shakllanmagan.

Kompaniyalar risk modellashtirish tizimlarini joriy erishi, Big Data va sun'iy intellektdan foydalanib, real vaqt rejimida monitoring qilish tizimlarini shakllantirishi lozim. Sun'iy intellekt asosidagi risk tahlili avtomatlashtirilgan boshqaruv tiimlari kompaniyalarning barqarorligini oshiradi. Shuningdek, fond bozorini rivojlantirish, kapital jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish va risklarni boshqarish bo'yicha xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlar korporatsiyalar uchun barqarorlik va raqobatdoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Basel Committee on Banking Supervision (2023). **“Base III: Finalising post-crisis reforms.”**
2. Jorion, P. (2007). **“ Value at Risk: The New Bnechmark for Managing Financial Risk.”**

3. Hull, J. (2018). **“Options, Futures, and Other Derivatives.”** Pearson Education.
4. Uzbekneftegaz, UzAuto Motors, Asaka bank va O'zbekiston Markaziy Bankining 2023-yilgi moliyaviy hisobotlar va tahliliy materiallari.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). **“O'zbekiston moliya bozori rivojlanish tendensiyalari.”**